

CHAYNOV TISHLARNI OLINGANDAN KEYIN ASORATLANISH XAVFI YUQORI BO'LGAN BEMORLARDA KOMPLEKS TEKSHIRUVNING AHAMIYATI

EMU University, 'Stomatologiya' yo'nalishlari bo'yicha'

Magsitratura talabasi – Mirsaidov M. M.

mirsaidovmirakmal252@gmail.com

Ilmiy rahbar: Stomatologiya kafedra mudiri

EMU University T.F.D, Akademik O. Sh. Shovkatov

DOLZARBLIGI

Chaynov tishlar ekstraksiyasi stomatologik amaliyotda eng ko'p uchraydigan jarrohlik muolajalaridan biri bo'lib, ushbu muolajadan keyingi yallig'lanish asoratlari (alveolit, peri-alveolyar infiltrat, yumshoq to'qimalarda odontogen infeksiyalar natijasida yuzaga keladigan absess, flegmonalar) bemorlarning 15–35% ida kuzatilishi mumkin. Asoratlarning vujudga kelishida og'iz bo'shlig'i mikroflora, ekstraksiya natijasidagi travma, umumiy somatik kasalliklar, og'iz bo'shlig' gigiyenasi, qon laxtasining barqarorligi va immunologik holat muhim rol o'ynaydi. Biroq, klinik amaliyotda xavfi yuqori bo'lgan bemorlarni ekstraksiyadan oldin yetarlicha aniqlash ko'pincha e'tibordan chetda qolmoqda. Kompleks diagnostika, shu jumladan somatik holatni, og'iz gigiyenasini, periodontal to'qimalarni, koagulatsiya ko'rsatkichlarini va rentgenologik holatni baholash asoratlarning oldini olishda sezilarli ahamiyatga ega. Shuningdek, kompleks tekshiruvning ilmiy asoslangan yondashuv sifatida o'rganilishi dolzarb hisoblanadi.

MAQSAD

Chaynov tishlarni olingandan keyingi yallig'lanish asoratlari xavfi yuqori bo'lgan bemorlarni aniqlashda kompleks tekshiruvning diagnostik qiymati va profilaktik samaradorligini tahlil qilish.

METODOLOGIYA

Ushbu tezisda mavzuga oid ilmiy manbalar, zamonaviy klinik tavsiyalar, xalqaro maqolalar va stomatologik jarrohlik protokollarining qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Baholashda quyidagi yo‘nalishlar asosida tizimli tahlil o‘tkazildi:

1. Bemorning umumiy somatik holatini baholash (qandli diabet, gipertoniya yoki gipotoniya, immunosupressiya);
2. Og‘iz gigiyenasi va periodontal holatini tekshirish;
3. Rentgen tasvirlar asosida ekstraktsiyaning murakkablik darajasini aniqlash;
4. Qon ivish ko‘rsatkichlari va yallig‘lanish markerlarining ahamiyatini o‘rganish;
5. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan xavf omillarining tahlili;
6. Profilaktika tizimlarining samaradorligini qiyoslash (antiseptiklar, antibiotiklar, PRF, atravmatik texnika).

Metodologiya sifatida tahliliy yondashuv, qiyosiy baholash va mavzuga oid ilmiy xulosalarning integratsiyasi qo‘llanildi.

VAZIFALAR

1. Chaynov tishlar ekstraktsiyasidan keyingi asoratlarning asosiy etiologik va xavf omillarini aniqlash.
2. Xavfi yuqori bo‘lgan bemorlarni aniqlash mezonlarini ilmiy manbalar asosida tizimlashtirish.
3. Kompleks tekshiruvning (klinik, laborator, rentgenologik) diagnostik ahamiyatini baholash.
4. Asoratlar xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktik choralar samaradorligini tahlil qilish.
5. Chaynov tishlar ekstraktsiyasida asoratlarni oldini olish bo‘yicha integrallashgan yondashuvni shakllantirish.

XULOSA

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, chaynov tishlarni olingandan keyingi asoratlarning paydo bo‘lishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u bemorning umumiy somatik holati, og‘iz gigiyenasi darajasi, periodontal to‘qimalarning holati, rentgenologik

o'zgarishlar va jarrohlik texnikasiga chambarchas bog'liq. Kompleks tekshiruv orqali xavfi yuqori bo'lgan bemorlarni oldindan aniqlash, ularni to'g'ri tayyorlash va individual profilaktik choralar (antiseptiklar, PRF, antibiotiklar uchun ko'rsatmalar, atravmatik jarrohlik) ni qo'llash yallig'lanish asoratlari chastotasini sezilarli darajada kamaytiradi. Shunday ekan, kompleks diagnostika post-ekstraksion asoratlarning oldini olishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan integrallashgan yondashuv hisoblanadi.

TAVSIYA ETILGAN MAQOLALAR

1. Halabí D, Escobar J, Muñoz C, Uribe S. Study confirms certain risk factors for development of alveolar osteitis. J Oral Maxillofac Surg. 2012 May;70(5):1040-4.
2. Afrah Akram – “Literature review of dry socket: etiology, pathogenesis, prevention, and management.” International Journal of Community Medicine and Public Health
3. “Common risk factors of dry socket (alveolitis osteitis) following dental extraction: A brief narrative review.” Journal of Stomatology, Oral and Maxillofacial Surgery, 2018.